



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

SO'ZI

Institut jamoasi Qo'shrabotda

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lrim to'g'risida"gi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunlari talablariga asosan viloyatda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga oid muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish, faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bilan umumiyl o'rta ta'lim maktablari hamkorligini tashkil etish maqsadida Samarkand viloyati hokimligining 2022 yil 11-yanvardagi "Samarqand viloyatida ta'lim sifatini oshirishga erishiladigan maqsadli ko'sratgichlar bo'yicha oxirgi o'rirlarni egallagan maktablarda ta'lim sifatini ko'tarish to'g'risida" gi 10-7-0-Q/22-sonli Qarori tasdiqlangan edi.

Ushbu qarorga muvofiq institutimizga viloyatimizning Qo'shrabot tumanidan 15 ta umumta'lim maktablari birkiritilgan edi. 14-fevral kuni institut professor - o'qituvchilari va iqtidorli talaba-yoshlari tumandagi mazkur maktablarga tashrif buyurdilar. Tashrif doirasida jumladan:

- Birkiritilgan maktablar o'quvchilari va uyushmagan yoshlar vakillari institutning klinik kafedralari professor-o'qituvchilari tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Birkiritilgan 15 ta maktabga institut tomonidan ishchi holatdagi 50 ga yaqin kompyuterlar sovg'a qilindi.

Shuning bilan birga "Yashil makon" va "Yashil yillik" aksiyalari doirasida tumanning 15 ta maktabining barchasida 500 dan ortiq mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazildi.

- Qo'shrabot tumanining 2-son umumta'lim maktabida "Sog'lom turmush tarzi"ni targ'ib qilish maqsadida Stomatologiya fakulteti professor — o'quvchilari, talabalari "Yorqin tabassum" shiori ostida maktab o'quvchilariga tushuntirishlar berib, maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazib, kerakli ko'sratmalar berildi.

- Oqtepa qo'rg'onchasining "Madaniyat uyi"da Tibbiyot instituti qaramog'idagi o'quvchilariga "Madaniyat uyi" xodimlari va institutning iqtidorli talabalari tomonidan turli milliy kuy — qo'shiqlar hamda turli chiqishlar taqdimgilindilari.

- Biokimyo kafedrasi xodimlari ham Qo'shrabot tumanidagi 70-maktabga tashrifi doirasida mevali daraxtlar ekilib, xodimlar



va o'quvchilar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi hamda bitiruvchi sinf o'quvchilariga mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek maktabga printer va laboratoriya jihozlarini berildi.

- Tumandagi 11-maktabga 50 dan ortiq badiiy va jahon adabiyoti namunalarini, 20 dan ortiq kimyo, fizika va biologiya fanlaridan elektron darsliklar berildi. Kimyo laboratoriysi to'liq jihozlanib, virtual laboratoriylar uchun televizor hamda uni ishlatsish uchun virtual laboratoriya to'plami hamda darslarini sifatlari o'tkazish maqsadida fizika xonasiga proyektor taqdim etildi. Bundan tashqari o'quvchilarining o'qishdan bo'sh vaqtlarini hunarmandchilikni o'rganishga sarflashlari uchun so'ngi rusimdagisi tikuva mashinasi berildi.

Eng ahamiyatlisi shundaki ushbu maktablarda turli jabhalarda namuna bo'lib kelayotgan hamda a'lachi bo'lgan 20 nafar o'quvchiga SamDTI stipendiysi taqdim etildi. Ushbu stipendiya har oy davomida berib boriladi.

Sog'lomlashtirish skrining tibbiy ko'riklari Qo'shrabotda


Institut malakali mutaxassislari tomonidan Qo'shrabot tuman Shovona oilaviy poliklinikasiga qarashli Boqi Chig'atoy qishlog'ida navbatdagi maqsadli skrining tibbiy ko'rik o'tkazildi.

Tibbiy ko'rik uchun xirurg, terapevt, endokrinolog, neyroxirurg, UTT shifokori, onkolog, ginekolog, oftalmolog, lor, pediatr kabi ko'plab mutaxassislar jalb etildi.

Tashrif davomida 304 nafar fuqaro skrining tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, aniqlangan kasalliklar bo'yicha 23 naftari tuman shifoxonasiga, 8 naftari viloyat shifoxonalari davolanih uchun yo'llanma berildi. Oq'ir ahvoldagi bermorlar uyiga borib tekshirildi. Bundan tashqari maktabda o'quvchilar bilan uchrashib mahorat darslari tashkil qilindi.



E.Tangirov,
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor



Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi

14-fevral o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, shoir, adib, olim, sarkarda, yirik davlat arbobi, "Buyuk Boburiylar sulolasi" asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligi nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи "Ma'naviy ma'rifiy ishlар tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5040-sonli Qarori ijrosi hamda buyuk shoir va mutafakkir, yirik davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad


Bobur tavalludining 539 yilligini munosib nishonlash maqsadida, institutning "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan" kafedrasi xodimlari 2-son TTJda talabalar bilan davra suhbat o'tkazdilar. Tadbirda xalqaro ta'lim fakulteti dekani F.M.Raufov, dekan o'rinosbosari M.O.Zaripov, fakultet tyutorlari hamda O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir va jurnalist Zubaydulla Ibragimov qatnashdi.

Tadbirda ulug' bobokalonimiz yod etilib, qoldirgan yirik badiiy meroslari ta'kidlandi. G'azallar va ruboilyar o'qildi.

Navoiyni anglash - o'zlikni anglash

Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog'i erta tongdan davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, professor-o'qituvchilar, yozuvchilar, shoirlar, talaba va o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi.

Buyuk mutafakkir tavalludining 581-yilligi munosabati bilan bog' markazida o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali poyida tadbir o'tkazildi. Unda buyuk bobokalonimizning hayoti, boy madaniy merosi va bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi o'rni xususida fikr yuritildi. Hazrat Navoiy asarlari dunyo xalqlarining bebahohi ma'naviy merosiga aylangani qayd etildi. Tadbirda institutimiz jamoasi ham qatnashdi.



S.Halimov, Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i

"INSON QADRI UCHUN" SHIORI OSTIDA OCHIQ MULOQOTLAR



Institut professor-o'qituvchilari tomonidan Samarqand viloyatini tumanlarida "Inson qadri uchun" shiori ostida "Jonkuyar tibbiyot xodimlariga tayanamiz!" mavzusida turkum ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda.

Institutda tuzilgan maxsus Ishchi guruh a'zolari tomonidan 4 fevraldan boshlab biriktirilgan hududlar tibbiyot muassasalaridagi shifokorlar, hamshiralar va boshqa xodimlar bilan ochiq muloqotlarda sog'liqni saqlash sohasidagi dolzarb muammolar, ularning yechimlari, aholiga ko'rsatilayotgan malakali tibbiy xizmat sifatini yaxshilash bo'yicha taklif va tashabbuslar muhokama qilinmoqda. Jumladan, 4-fevral kuni mazkur muloqotlar Bulung'ur va Jomboy tuman tibbiyot birlashmalarida bo'lib o'tdi, 5 fevral kuni esa Urgut va Toyloq tuman tibbiyot birlashmalarini xodimlari bilan o'tkazish rejalashtirilgan.

Hududlardagi tibbiyot vakillaridan takliflarni yig'ib umumlashtirilgandan so'ng sohasi yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlarni joriy qilish belgilangan.

O'z muxbirimiz

Italiya delegatsiyasi Institutda

Italiyaning Milan universiteti professori Diego Lops, "Osteocom" firmasi vakili Manuel Elia boshchiligidagi Italiya delegatsiya institutga tashrif buyurdi.

Italiyadan kelgan delegatsiya a'zolari SamDTI rektori J.A.Rizayev bilan uchrashdi. O'zaro muzokarada SamDTI va Milan Universiteti o'ttasida aloqalarni yo'nga qo'yish bo'yicha maqsadli ishlar kelishib olindi.

Tashrif davomida institutda yaratilgan sharoitlar, o'quv xonalari, zamonaviy laboratoriylar hamda ta'lim jarayonlari bilan yaqindan tanishib chiqishdi hamda o'zlarining yorqin taassurotlarini iliq fikrlarida bayon qilishdi.

Tashrifning keyingi bosqichida Milan universiteti professori Diego Lops "Innovatsion Magnito dinamik texnologiyalarni stomatologiya sohasidagi tutgan o'mni "mavzusida institut professor-o'qituvchilari, klinik ordinator, magistr ordinatura (rezidentlar) va stomatologiya fakulteti talabalariga ma'ruba qildi. Diego Lops o'z ma'rurasida ushbu mavzuda olib borgan ilmiy



izlanishlari, sohadagi yutuq va kamchiliklar, tish va milk muolajasi hamda tish implantatsiyasidan keyingi bosqichlar haqida gapirib o'tdi. Shuningdek, ushbu sohadagi jahon va Italiyada qo'llaniladigan ilg'or tajribalarini yig'ilganlar bilan bo'lishdi.

A.Axmedov, stomatologiya fakulteti dekanı, dotsent

Turkiyalik shifokorlar ishtirokida amaliy seminar

Institut bilan hamkorlikda Turkiyaning "Medical Park", "Vm Medical Park", "Liv" bilan birgalikda "Tibbiyat fani va texnologiyasining zamonaviy yutuqlari" mavzusidagi amaliy seminar o'tkazildi.

Anjumanda Samarqand viloyatida o'z faoliyatini yuritib kelayotgan Akusherlik va Ginekologiya, Onkologiya, Xirurgiya, Urologiya mutaxassisligi bo'yicha shifokorlar qatnashishdi.

Xalqaro konferensiyaning ochilishida institutimiz rektori, professor Jasur Rizayev so'zga chiqib, Zamonaviy tibbiyotning yutuqlari haqida gapirdi.

Anjuman doirasida "Bepushtlikni davolashning zamonaviy usullari, EKU bilan davolash muvaffaqiyatlari", "Suyak ko'migi transplantatsiyasi", "Yangi texnologiyalar orqali onkourologiya va onkonefrologiyada davolashlarning afzalliliklari", "Yuqori texnologiyali sog'liqni saqlash, organ transplantatsiyasi bo'yicha maxsus tadqiqotlar", "Umumiy onkologiya, kanserogenet, epidemiologiya masalalari, xatarli o'smalarni tashxislar va davolash tamoyillari", "Buyrak transplantatsiyasi" va "Ginekologiyada estetik jarrohlik" mavzulariga Turkiyalik mutaxassislar tomonidan ma'ruzalar o'qildi.

Kunning ikkinchi yarimida institutning 1 – son Xirurgik kasalliklar kafedrasida institut professori Zafar Kurbaniyazov hamda "Medical Park" professori Bulent Unal hamkorlikda jarrohlik amaliyoti o'tkazishdi.



Kelgusida institut hamda Medical Park tibbiyot markazi o'tasidagi memorandumga asosan buyrak va jigar transplantatsiyasi bo'yicha ham jarrohlik ishlari olib borilishi rejalashtirilgan.

Ma'lumot uchun, Respublikamizda 5 ming nafar bemor jigar sirrozidan azob cheksa, ularning 500 nafari, ya'n 10 foizi jigar transplantatsiyasi amaliyotiga muhtoj. Bugungi kunga qadar mamlakatimizda jami 10 ta jigar transplantatsiyasi amalga oshirilgan. Institut hamda Medical Park o'tasidagi aloqalarning rivojlanishi ushbu jarayoning yanada yaxshilanishiga zamin yaratadi deb, umid qilamiz.

O'z muxbirimiz

MEDICAL ENGLISH DASTURI BO'YICHA DARSLAR BOSHLANDI

Institut talabalari bilimini chuqurlashtirish va mustahkamlash, tibbiyot sohasidagi kadrlarga ingliz tilini o'rgatish tizimini yanada yaxshilash maqsadida institutda Medical English o'quv dasturi tashkil etilgan edi.

Institut faol talabalarining tashabbusi bilan ushbu dastur bo'yicha ilk offline dars tashkil etildi. Darsda dasturning asosiy g'oyaviy-ilmiy maqsadi haqida ham so'z borib, talabalarga ko'nikma va tushunchalar berib o'tildi.

Medical English dasturi darsida institutining turli bosqich talabalari ishtirok etishdi.



Institut matbuot xizmati

SHIFOKOR SO'ZI

Oilaviy tibbiyot kafedrasining yangi binosi ochildi

Respublikamizda sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni ustuvor yo'naliishlaridan biri bu birlamchi muassasalarini ishlashi, ularda faoliyat ko'ssatayotgan tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish, o'quv bazalar moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashdan iborat.

Institutimiz rahbariyatining tashabbusi bilan Samarqand shahar 3-son oilaviy poliklinika bazasida joylashgan diplomdan keyingi ta'lif fakulteti "Umumi amaliyot/oilaviy tibbiyot" kafedrasini kapital qayta ta'mirdan chiqarildi. Mazkur kafedrada viloyatimiz va qo'shni viloyatlar oilaviy poliklinikalarini deyarli barcha shifokorlari o'z malakalarini oshiradilar.

Yangilangan kafedrani tantanali ochilishida institut rektori Jasur Rizayev kafedralar moddiy-texnik ta'minotini kuchaytirish va o'quv jarayonni sifat darajasini doimiy ravishda yuksaltirish eng ustuvor vazifalarini ekanligini ta'kidlab o'tdi. So'z olgan kafedra xodimlari va o'z malakalarini oshirilayotgan kursantlar institut rahbariyatiga yaratilgan sharoitlar uchun o'z minnatdorchiliklarini bildirib o'tdilar.

Kafedra amaliy ko'nikmalarini o'rgatish kabinet, axborot resurslar kabinet, oilaviy shifokor ish joyi kabinet-modeli, o'qituvchilar xonalari,



o'quv xonalar hamda katta konferens-zal eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlab berildi.

Ta'kidlash lozim, institut mazkur kafedrasini xodimlari tibbiyot tizimi birlamchi bo'g'lnlari bilan doimiy ravishda hamkorlikda bo'lib, oilaviy shifokorlarga muntazam ravishda konsultatsiyalar berib hamda og'ir bemorlarni klinik tekshiruvlarini tashkil qilish ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar.

Institut matbuot kotibi

Institut kuzatuv kengashining birinchi majlisi o'tkazildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 24-dekabr kuni imzolangan "Davlat oliy ta'lif muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruva mustaqillik berish to'g'risida"gi va "Davlat oliy ta'lif muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish to'g'risida"gi qarorlari bo'yicha 2022-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekistonda 35 ta OTMga, shu jumladan Samarqand davlat tibbiyot institutiga ham moliyaviy va tashkiliy boshqaruva masalalarida mustaqillik berildi.

Moliyaviy mustaqillik olgan oliygochlarda "Kuzatuv kengash"lar tashkil etilib, ular keng masalalarni, shu jumladan oliy ta'lif muassasasining uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturini tasdiqlash, xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining yuqori o'rinnaridan joy olish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni belgilash hamda uning amalga oshirilishini nazorat qilib borish, o'rta muddat uchun shakllantiriladigan biznes-rejasi hamda daromadlar va

xarajatlar parametrlarini tasdiqlash, ularning ijrosini muhokama qilish, ta'lif yo'naliishlari, mutaxassisliklar hamda ixtisosliklar bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul parametrlarini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish, oliy ta'lif muassasasini rivojlantirish va uning moliyaviy faoliyati bilan bog'liq masalalarni hal etish, shu jumladan nodavlat notijorat tashkiloti ko'rinishida maqsadli kapital jamg'armasini shakllantirish va byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasini mablag'lardan foydalanish tartibini, shu jumladan xarajatlarning taqsimlanish ulushini mustaqil belgilashni nazorat qiluvchi organ deb belgilangan.

5 – fevral kuni Institut kuzatuv kengashining 1-majlisi onlayn tarzda o'tkazildi. Yig'ilishda jami 10 nafar kuzatuv kengashini a'zolari, shu jumladan institut rektori, prorektorlar, viloyat tibbiyot muassasalarini rahbarlari ishtiroy etdilar. Majlisni kuzatuv kengashi raisi, Sog'liqni saqlash vazirini o'rinosari Ulugbek Sabirov oolib berdi.

Majlsida institut rektori Jasur Rizayev taklifi bilan SamDTIda 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator masalalar ko'rib chiqildi. Jumladan, "Samarqand davlat tibbiyot institutining Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash, "Samarqand davlat tibbiyot institutining 2022-yil uchun biznes-rejasi"ni tasdiqlash, "Samarqand davlat tibbiyot institutining professor-o'qituvchilari va xodimlarini byudjetdan tashqari (to'lov kontrakt hamda rivojlantirish jamg'armasi) mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ni tasdiqlash va boshqa bir qator masalalar ko'rib chiqildi. Majlis ishtiroychilari, muhokama qilingan ishlar va qabul qilingan hujjatlar institutni yanada yuksaltirishga turtki bo'lishini ta'kidlab o'tdilar.

O'z muxbirimiz.


KLINIK ORDINATORLARNING YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI

Hozirgi kunda yetuk va malakali tibbiy kadrlar yetishtirib berish masalasi zamon talabidir. Va bu talab bevosita tibbiyot o'quv muassasalariga qaratiladi.

Tibbiy OTMlarda ta'lif jarayonini yuqori savyiyada tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Zero o'quv jarayonlari va imtihonlarning to'g'ri va zamon talabiga mos shaffof tarzda o'tishi malakali mutaxassislar tayyorlash yo'lidagi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi desak mubolog'a bo'lmaydi.

Xususan, institutda ham boshqa OTMlar singari attestatsiya jarayonlari o'tkazildi. Attestatsiyada O'quv ishlari bo'yicha prorektor Nargiza Yarmuxamedova, Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Shuxrat Ziyadullaevlar ishtiroy etib, yig'ilgan klinik ordinotorlarga muvaffaqiyat va omad tiladilar.

Ma'lumot uchun, Akusher va ginekologiya mutaxassisligi bo'yicha 26 nafar, endokrinologiya mutaxassisligi bo'yicha 6 nafar, kardiologiya



bo'yicha 18 nafar, umumiy xirurgiya bo'yicha 4 nafar va Yuz-jag' xirurgiyasi mutaxassisligi bo'yicha 3 nafar, jami 57 nafar ordinatura rezidentlari yakuniy davlat attestatsiyasini topshirdi.

O'z muxbirimiz.

“Sog‘lom turmush tarzi sog‘liq garovi”

Joriy yilning 18-fevralida Ma’naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni doirasida Samarqand 13060-harbiy qism Madaniyat markazida uchrashuv bo‘lib o’tdi.

“Sog‘lom turmush tarzi sog‘liq garovi” mavzusida kechgan uchrashuvda Samarqand davlat tibbiyot instituti o‘qituvchilar ham ishtiroy etishdi.

Tibbiyot olamiga o‘zining ulkan hissasini qo’shgan ulug‘ bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoning hayoti va ijodi, bizga qoldirgan boy merosi yuzasidan fikrlar almashinildi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, shaxsiy gigiyena va to‘g‘ri ovqatlanishga e’tibor qaratish, muntazam sport bilan shug‘ullanish hamda turli virusli kasallikklardan himoyalanish to‘g‘risida ma’lumotlar berildi.

Tadbir so‘nggida harbiy xizmatchilar o‘zlarini qiziqtirgan bir qator savollarga javob oldilar.



“Harbiy shifokor — sharfli kasb”



2022 yilning 17-fevral kuni institut davolash fakulteti 5-kurs talabalari hamda tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti 4-kurs talabalarini O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasiga nomzodlarni saralash maqsadida “Harbiy shifokor — sharfli kasb” mavzusida targ‘ibot-tashviqot yig‘ilishining davra suhbati bo‘lib o’tdi.

Uchrashuvda SamDTI Davolash ishi fakulteti dekan o‘rinbosarları N.A. Muradova, Z.Z. Umarqulov, T. X. Nabiiev 4-5-kurs talabalaridan 450 nafari, Samargand viloyat MIB mutaxassisasi q.k. xizmatchisi Tursunov SH. SH., O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi mas’ul ofitserlari polkovnigi Xalimov B.X., hamda

Samarqand harbiy gospitali katta ordinatori kapitani Nazarov Y.Z. lar qatnashdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy tibbiyot akademiyasiga, nomzodlarni saralash maqsadida “Harbiy shifokor-sharfli kasb” mavzusida targ‘ibot – tashviqot suhbati olib borildi.

Tadbir O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi haqida videorolik bilan boshlandi va slaydlar orqali to‘ldiruvchi ma’lumotlar berib o’tildi.


Shuningdek, kun tartibidagi masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasi kafedra boshlig‘i t/x polkovnigi Xalimov B.X. so‘zga chiqib, harbiy tibbiyot akademiyasi haqida hamda harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar haqida ma’lumot berib o’tdi. Shu masala yuzasidan Samarqand harbiy gospitali katta ordinatori t/x kapitani Nazarov Y.Z. so‘zga chiqib, harbiy tibbiyot akademiyasiga kiruvchi nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va qabul qilish tartiblari haqida ma’lumotlar berdi.

Tadbir so‘ngida talabalarni qiziqtirgan savolariga Harbiy tibbiyot akademiyasidan kelgan mas’ul xodimlar va Samarqand viloyat MIB mutaxassislari tomonidan javoblar berildi.

S.Muhiddinov,

Yoshlar bilan ishlash ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi uslubchisi

Ilmiy-tadqiqot va nashriyot ishlari bo‘yicha o‘quv seminar



Nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etish faoliyagini va xodimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha bilimlarini oshirish maqsadida 2022-yil 5-fevraldan boshlab institutimizda yangi tadqiqotchilar va yosh olimlar uchun maxsus o‘quv kurs boshlandi. Ushbu kursda kafedralar va kurslar assistentlari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va institut magistratura bosqichining rezidentlari qatnashdilar.

O‘quv kursi ilmiy muammoni shakllanishidan boshlab, ilmiy maqola va tezislarni yozish va nashr etish, adabiyotlarni tanlash va tayyorlash, tadqiqotning asosiy turlari va statistik ma’lumotlarni qayta ishlash asoslari bilan tanishish, tadqiqot loyihalari va grantlar, axloqiy komissiyadan o‘tish uchun ma’lumotlarni taqdim etish va ilmiy tadqiqot ishlaringning barcha tomonlarini qamrab oladi.

O‘quv kursning birinchi kunida institutning yangi binosi majlislar zalida Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, PhD, Aziza Maxmudova “Maqlolalar tayyorlash va chop etish asoslari” mavzuda ma’ruza qildi. Taqdimotda reytingini yuqori jurnallarda chop etilishning institut reytingini oshirishida katta ahamiyati, ilmiy maqola tushunchasini aniqlash, ularni yozish va loyihalash metodologiyasi, chop etish uchun jurnallarni izlash va tanlash, iqtibos va impakt faktori, shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning boshqa tarkibiy qismlariga bag‘ishlangan masalalar yoritildi.


Seminar juda faol ruhda o’tdi, ma’ruzachi seminar ishtiroychilarining ko‘plab savollariga javob berdi.

O.Axmedov, Institut matbuot xizmati rahbari


Davlat stipendiyalari sovrindorlari



Muxammedova
Fariza Farkhadovna



Valiyeva Sadoqat
Shokirovna



Djalolov Davlatshox
Abduvoxidovich



Shamsiyev Ozodbek
Fazliddinovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 14-fevraldag'i buyrug'iiga asosan Respublika oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasidagi davlat stipendiyalari sohiblari tasdiqlandi. Mazkur qarorga muvofiq, institutning quyidagi talabalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari sohibi bo'lishdi:

Pediatriya fakulteti 6-kurs talabasi Muxammedova Fariza Farkhadovna 2021/2022 o'quv yili uchun bakalavriat bosqichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi; Pediatriya fakulteti 6-kurs talabasi Valiyeva Sadoqat Shokirovna

Islom Karimov nomli Davlat stipendiyasi sohibi bo'ldi.

Bundan tashqari, 2021/2022 o'quv yili uchun 2 nafar talaba Ibn Sino nomli davlat stipendiyasi g'olib bo'lishdi. Jumladan, Pediatriya fakulteti 6-kurs talabasi Djalolov Davlatshox Abduvoxidovich va Davolash fakulteti 5-kurs talabasi Shamsiyev Ozodbek Fazliddinovichlar.

Talabalarimizni erishgan yuksak yutuqlari bilan tabriklaymiz va ularga hayotda yangi zafarlar tilaymiz!

*U.Payzullaeva,
iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i*

"Uch avlod uchrashuvi"



Institut stomatologiya fakulteti talabalari bilan "Uch avlod uchrashuvi" doirasida Afg'onistonda xalqaro terrorizm va ekstrimizmga qarshi harbiy harakatlarning tugaganligining hamda harbiy qismlar olib chiqarilganligining 33 yilligi munosabati davra suhbatি bo'lib o'tdi.

Yig'ilish Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi oliy toifali shifokori Murtazayev Xabibullo Murtazayevich ham ishtirok yetdi.

Uchrashuvda, shuningdek, afg'on urushida tibbiyot xodimlarining fidokorona xizmatlari, matonati, askarlarga ko'sratgan yuksak yordamlari tilga olinib, hamma zamонlarda tibbiyot sohasi vakillariga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lganligi ta'kidlandi.

*S.Sultonov,
stomatologiya fakulteti dekani o'rinnbosari*

Bahor gullarida sening iforing...

Zulfiyahonim hotirasiga

Bahor gullarida sening iforing,
Muzlagan dillarda tiriladi jon.
Izg'irin kunlarning oxiri mayin,
Kaftingda uyg'onan jazzi polapon.

Muzliklar ketidan erigan qorlar,
Bahorga almashsin tosh yuragini.
Sening sochlaringda erimaydi qor,
Mening yuragimga solmaydi g'ubor.

Sen kimsan asli sen bahor gulshani,
Poyingda ochilar olam gullari.
Jannatlar ochilsa eshigin bir bor,
Ko'rmaysan yuzlarda g'amgin ko'zlarni.

Toparsan Zulfiya oroming bugun,
Chorlaysan yoningga boychechaklarni.
Hotirang yozilgan kitobga bir kun,
O'qiyman umrimming poyonlarini.

«Sen ketding»

*Sen ketding bog'imga qaytmadi bahor,
Sang'iydi ko'chamda tentiragan qish.
Sen ketding hovlimda ertalab nahor,
Motam kuylagida sayramaydi qush.*

*Sen ketding yil bo'yi qishda sovgotdim,
Laylak qor dardimga bo'lmadi yupanch.
Sen ketding Tangrimga rosa yolvordim,
Sevgimning diliga qayta sol ishonch.*

*Sen ketding izingdan sundi yaproqlar,
Mezon uchuradi meni ildizsiz.
Sen ketding shoxlarda ochmas g'unchalar,
Daraxtlar yig'laydi unsiz va unsiz.*

*Sen ketding batamom tugadi hayot,
Tilimda sevgisiz so'zsiz ne demak.
Rahm qil sevgilim bari homhayol.
Dunyoda sensiz ham yashashim kerak.*

*Zebixon Xolmatova.
Pastdarg'om tumani, Juma shahri.
SAMDTI sobiq talabasi.*

SAMIYEV UTKUR BASIROVICH

(1952 - 2022)



Samarqand davlat tibbiyot instituti jamoasi og'ir judolikka uchradi. Beshafqat o'llim oramizdan taniqli olim, mohir pedagog, qo'lli em shifokor, ichki kasalliklari propedevtikasi kafedrasи dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi Samiyev Utkur Basirovichni olib ketdi.

Utkur Basirovich Samiyev 1952-yilda Samarqand tumani Xaymari qishlog'ida tug'ilgan. 1969-1970 yy Samarqand

davlat tibbiyot instituti katta preparatori bo'lib ishlagan, U.Samiyev 1970-1976 yy Samarqand Davlat tibbiyot instituti davolash fakulteti imtiyozli diplom bilan tamomlagandan so'ng, 1976-1978-yillarda Samarqand davlat tibbiyot instituti klinik ordinatori, 1978-1979-yillarda Samarqand tuman tibbiyot birlashmasi vrach terapevti bo'lib ishladi.

Utkur Basirovich 1980-1983-yillarda institutda aspiranturada tahlil oldi. 1983-1987-yillarda institut assistenti lavozimida ish faoliyatini boshlab, 1987-1993-yillarda davolash fakulteti dekani o'rinnbosari sifatida ish faoliyatini davom ettirdi.

U.B.Samiyev 1993-1998-yillarda institut 1-son ichki ichki kasalliklar kafedrasи dotsenti lavozimida ishladi. Utkur Basirovich 1998-2006-yillarda institut ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektori lavozimida faoliyat ko'satib, yoshlar tarbiyasi va ma'naviy ma'rifiy ishlarni takomillashtirishda munosib hissasi qo'shib institut va viloyat jamoasi o'tasida ulkan muvaffaqiyat qozondi.

Utkur Samiyev 2006-yildan 2011-yilgacha ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasи mudiri va 2011-yildan bugunga qadar mazkur kafedra dotsenti lavozimida faoliyat ko'satib magistr va talabalariga saboq berib kelmoqda edi.

U.B.Samiyev 1986-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgach,

bugunga qadar tomonidan 200 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan, 15 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar, 14 ta ixtiro va 3 ta monografiya muallifi. U kishining rahbarligida 2 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Olim Ilmiy ishlardagi bo'lib Respublika, MDH va Yevropa davlatlarida o'tkazilgan ko'plab nufuzli konferensiyalarda ishtirot etib, uning ilmiy faoliyati ko'plab imtiyozli diplom va sertifikatlar bilan e'tirof etilgan. U.B.Samiyev ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida faoliyati davomida institut 1-son klinikasi kardiologiya bo'limiga kelgan bemorlar dardiga malham bo'lishda o'zining munosib hissasini qo'shib keldi.

Dotsent Utkur Samiyev katta hayotiy tajriba va chucur bilimga ega bo'lgan mohir pedagog sifatida institut talaba-yoshlariga chucur bilim berishda o'zining munosib hissasini qo'shgan. O'zining insonparvarligi, xalqchilligi tufayli viloyat va shahar jamoatchiligi o'tasida katta hurmat e'tiborga sazovor bo'ldi. Mehribon ota, oilaparvar inson sifatida 2 farzandni tarbiyalab, hayotda o'zlarining munosib o'rinalarini topishlariga yetaricha shart-sharoit yaratdi.

Samiyev Utkur Basirovich ko'p yillik samarali mehnati va 1979-1980-yillarda Afg'onistonda janglarda xizmat qilganligi uchun 1989-yilda "Afg'on xalqi nomidan minnatdorlik" ko'krak nishoni hamda 2001-yilda "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligi" ko'krak nishonlari hamda viloyat va shahar hokimliklarining "Faxriy yorliq"lari bilan taqdirlangan.

Samiyev Utkur Basirovich atrofdagilarning muhabbatni va hurmatiga sazovor bo'lgan, bo'lajak yosh shifoko'larni doimiy maslahatgo'y, mehribon va ajoyib inson edi. U.B.Samiyevning yorqin xotirasiga qalbimizda abadiy saqlanajak.

Samarqand davlat tibbiyot instituti ma'muriyati va kasaba uyushmasi qo'mitasi hamda 1-son klinikasi ma'muriyati

Institut xodimlari — sport va sog'lom hayot tarafdori



Sog'lom turmush tarzini yo'iga qo'yishning vositalaridan biri bu muntazam sport bilan shug'ullanishdir. Albatta, sport — sog'lik garovi.

Xususan, institut jamoasi ham sog'lom hayot tarzdi tarafdoi. Buning yorqin dalili o'laroq bugun pediatriya fakulteti dekani tashabbusi bilan fakultet zam dekanlar, xodimlari va tyutorlari "Sport sog'lik garovi" shiori ostida turli sport o'yinlari tashkil yetildi. Oliygohning bir guruh xodimlari institut litseyidagi sport zaliga tashrif buyurishdi. Zalda voleybol, basketbol va boshqa sport o'yinlari bilan shug'ullanishdi.

Bundan maqsad nafaqat, institut xodimlarining ishdan bo'sh vaqtlini mazmunli o'tkazish, balki, butun institut va o'sib kelayotgan yosh avlodga sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdan iborat desak, mubolag'a bo'lmaydi.



Aholi va yoshlar o'tasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sog'lom turmush tarziga intilishlarini shakllantirish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun sport to'garaklariga jaib etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Sog'lom turmush tarzni, inson salomatligini asrash, uzoq umr ko'rishning garovi ekanligi hammamiz uchun ayon haqiqat bo'lib, aholining sog'lom turmush tarzni va farovon hayoti ifodasi hisoblanadi.

Institutda bu sohada talaygina ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, xususan professor-o'qituvchilar va xodimlar, xotin-qizlar va yoshlarning barcha sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Institutni xotin-qizlar jamoasi ham bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, bo'sh vaqtlarida muntazam ravishda sport turlari bilan shug'ullanib, sog'liqlarini mustahkamlab kelishmoqdalar.

M.Murodov, fuqaro mudofaasi, jismoniy tarbiya va sport kafedrasи mudiri

SAMDTI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

PEDIATRIYA FAKULTETI

3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi,
stajer-assistent lavozimiga - 2 o'r'in;
Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi,
assistant lavozimiga - 1 o'r'in;
Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi,
stajer-assistent lavozimiga - 1 o'r'in;

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Ortopedik stomatologiya kafedrasi,
assistant lavozimiga - 1 ta o'r'in;

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar

qatnashishi mumkin.

O'qituvchi lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha olyi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 u
Ilmiy kotib U. OCHILOV

FARMATSIYA FAKULTETI

Klinik farmakologiya kafedrasi,
assistant lavozimiga - 2 o'r'in;
Farmakognoziya va farmasevtik texnologiyalar kafedrasi,
stajer-assistent lavozimiga - 2 o'r'in;
Farmakologiya kafedrasi,
stajer-assistent lavozimiga - 2 o'r'in;
Tibbiy kimyo kafedrasi,
stajer-assistent lavozimiga - 1 o'r'in;
Biologik kimyo stajer-assistent lavozimiga - 2 o'r'in;

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasi,
assistant lavozimiga - 1 ta o'r'in;

Ilmiy kotib
U.U.Ochilov

MASTER KLASS

Sana 04.03.2022/soyat 16:30

Yo'nalishlar:

1. Kompyuter texnologiyalari (rus tilida)
soxa egasi M.P. Molikov 15 min
2. Kompyuter grafikasi va web dizayn (o'zbek tilida)
soxa egasi A.T. Keldiyarov, N. Nematov 15 min.
3. Tibbiyotda axborot tizimlari
soxa egasi A.M. Voxidov 15 min.

4. Xirurgiyada zamonaviy texnologiyalar.
soxa egasi A.SH. DJalilov
Kafedra – Informatika va information texnologiyalar
Manzil – 1-TTJ_Manaviyat xonasi

Takif etiladi:
BARCHA XOHLOVCHILAR

OCHIQ MA'RUDA E'LONLARI

Samarkand davlat tibbiyot instituti «3-ichki kasalliklar» kafedrasida 2022 yil 28 fevral kuni ichki kasalliklar fanidan soyat 12:30da kafedraning ma'ruzalar zalida davolash fakultetining 437-440-guruhlari talabalari uchun ochiq ma'ruda bo'lib o'tadi.

Mavzu: Biriktiruvchi to'qima tizimli kasalliklari, etiologiyasi, tasnifi, klinikasi. Tashxislash. Davolash tamoyillari va profilaktikasi.

Ma'ruzachi: 3-ichki kasalliklar kafedrasi assistanti, PhD Po'latov Ulug'bek Sunatovich.

Kafedra mudiri: t.f.d., prof. Shodikulova G.Z.

Manzil: 3-ichki kasalliklar kafedrasining ma'ruzalar zali.

Takif qilinganlar: Davolash fakulteti 437-440-guruhlari talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SamDTI Pediatriya fakulteti ichki kasalliklar kafedrasida 2022-yil 7-mart kuni soyat 13:10da Pediatriya fakulteti III-kurs guruhlari talabalari uchun ochiq ma'ruda bo'lib o'tadi.

Mavzu: Zotiljamlar. Etiologiya, patogenez, klinika, diagnostika. Zamonaviy davolash usullari, profilaktika.

Ma'ruzachi: PhD, dos: Ishankulova D.K.

Ekspertlar: 1. Davolash fakulteti, 2-Ichki kasalliklar kafedrasi mudiri t.f.d., prof. Tashkenbaeva E.N. 2. RShTYolMSF 1-shoshilinch terapiya bulimi mudiri Rofeev M.Sh.

O'tkazish joyi: Pediatriya fakulteti ichki kasalliklar kafedrasi ma'ruda zali

Takif qilinganlar: Pediatriya fakulteti III-kurs guruhlari talabalari, Ichki kasalliklar kafedralari va dekanat xodimlari, klinik ordinatorlar va magistrlar.

SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida 2022-yil 1-mart kuni fakultet pediatriya fanidan soyat 11:10da Pediatriya fakulteti 301-305-guruhlari talabalari uchun ochiq ma'ruda bo'lib o'tadi.

Mavzu: Raxit etiopatogenezi, tasnifi. Vitamin Dning organizmdagi metabolizmi. Raxitni rivojlanishiga olib keluvchi omillar.

Ma'ruzachi: 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasining dotsent, t.f.d. Sharipova O.A.

Manzil: 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasi ma'ruda zali

Takif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 301-305-guruhlari talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SamDTI urologiya kafedrasi 2022-yil 9-mart kuni urologiya fanidan soyat 11:30da pediatriya fakulteti 501-505-guruhlari talabalari uchun ochiq ma'ruda bo'lib o'tadi.

Mavzu: Bolalar buyrak va siyidik ajratish tizimi rivojlanish nuqsonlari.

Ma'ruzachi: urologiya kafedrasi professor, t.f.d.

Allazov S.A.

Kafedra mudiri: dots. Shodmonova Z.R.

Manzil: Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali majlislar zali (2-qavat).

Takif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 501-505-guruhlari talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, bo'lim vrachlari, viloyat urologiya ilmiy jamiyatiga a'zolari, pediatrlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV
Tahrir hay'ati:
G.U. LUTFULLAEV,
S.A. KARABAEV,
S.E. MAMARADJABOV,
A.A. AXMEDOV,
J.F. KADIROV.

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

S. Halimov

Operator va sahifalovchi:

A. KELDIYAROV

Fotomuxbir:

O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.
Nashrga ruxsat berildi: 2022 yil, 21 Fevral Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 41